

Toshkent davlat yuridik universiteti rektorining  
2023-yil 19-iyundagi 97-um-son buyrug‘iga  
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari o‘quvchilari  
o‘rtasida sport turlari bo‘yicha “Rektor kubogi” turnirini o‘tkazish to‘g‘risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiyl qoidalar**

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari (keyingi o‘rinlarda – yuridik texnikumlar) o‘quvchilari o‘rtasida sport turlari bo‘yicha “Rektor kubogi” turnirining (keyingi o‘rinlarda – turnir) maqsadi va asosiy vazifalari, turnirni tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish, shuningdek turnir g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash tartibini belgilaydi.

2. Turnirning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

yuridik texnikumlar o‘quvchilari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, jismoniy tarbiya va sportning ommaviy turlariga qiziqishini kuchaytirish;

yuridik texnikumlar o‘quvchilarini sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb qilish va ularda sport mahoratini doimiy ravishda yuksaltirish;

jismoniy tarbiya va sportni yuridik texnikumlar o‘quvchilarining sog‘lom hamda jismonan baquvvat bo‘lishlari uchun kundalik ehtiyojiga aylantirish.

3. Turnir yuridik texnikumlar o‘quvchilari o‘rtasida respublika tashkiliy qo‘mitasi raisi tomonidan tasdiqlanadigan sport turlari jadvali bo‘yicha o‘tkaziladi.

Turnir amalda tasdiqlangan sport turlari uchun o‘rnatilgan qoidalarga ko‘ra o‘tkaziladi va sport hakamlari tomonidan baholanadi.

4. Turnirga yuridik texnikumlarda o‘qiyotgan o‘quvchilar va ulardan tuzilgan jamoalar jalb etiladi.

5. Turnirni tashkil etish bo‘yicha ishchi organ Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o‘rinlarda – TDYU) Uzluksiz ta’lim boshqarmasi hisoblanadi.

**2-bob. Turnirni tashkil etish va boshqarish**

6. Turnirni yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha TDYU vakillaridan iborat respublika tashkiliy qo‘mitasi tarkibi TDYU rektori tomonidan tasdiqlanadi.

Zarur hollarda respublika tashkiliy qo‘mitasiga sport sohasi mutaxassislari jalg etilishi mumkin.

Tashkiliy qo‘mita, qoidaga ko‘ra, rais, rais o‘rinbosari, kotibi va boshqa a’zolardan iborat tarkibda shakllantiriladi.

7. Respublika tashkiliy qo‘mitasi tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

turnirni tashkil etishga umumiylar rahbarlik qilish, uning tarkibiga hamkor tashkilotlarning vakillarini kiritish;

hamkor tashkilotlar bilan birgalikda turnir ishtirokchilari uchun tibbiy xizmat va ularni xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha choralarini ko‘rish;

turnir ishtirokchilari va g‘oliblarini rag‘batlanirish ishlarini amalga oshirish;

turnirning respublika bosqichini baholash uchun bosh hakam va hakamlar guruhi shakllantirish va tasdiqlash.

8. Turnirni adolatli va shaffof holda o‘tkazilishi bosh hakam va hakamlar guruhi zimmasiga yuklatiladi.

Bosh hakam va hakamlar guruhi tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda uning hududiy bo‘limmalari, sport makkabiali, federatsiyalar, hakamlar markazi va ta’lim muassasalarining sport turlari bo‘yicha hakamlik qilish vakolati bo‘lgan tegishli mutaxassislaridan, ular bilan kelishilgan holda shakllantiriladi.

9. Turnir quyidagi uch bosqichda tashkil etiladi:

turnirning birinchi – hududiy bosqichi har bir yuridik texnikumda har yili, qoida tariqasida, mart oyida o‘tkaziladi.

turnirning ikkinchi – mintaqaviy bosqichi qoida tariqasida aprel oyining birinchi o‘n kunligida o‘tkaziladi va ishtirokchilar quyidagi hududlar doirasida turnirda ishtirok etishadi:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatlari – birinchi mintaqqa;

b) Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy va Samarqand viloyatlari – ikkinchi mintaqqa;

c) Toshkent shahar, Sirdaryo, Toshkent va Jizzax viloyatlari – uchinchi mintaqqa;

d) Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlari – to‘rtinchi mintaqqa.

Turnirning mintaqaviy bosqichida qatnashib birinchi o‘rinni egallagan ishtirokchilar va jamoalar turnirning respublika bosqichida ishtirok etishga tavsiya etiladi.

Bunda, turnirning hududiy va mintaqaviy bosqichini adolatli, shaffof va xolis tarzda o'tkazish bo'yicha yuridik texnikum direktorlari mas'uldirlar.

Turnirning mintaqaviy bosqichi o'tkaziladigan joy yuridik texnikumlar direktorlari tomonidan o'zaro kelishgan holda tanlanadi.

turnirning uchinchi – respublika bosqichi har bir mintaqada birinchi o'rinni egallagan ishtirokchilar va jamoalar o'rtasida, qoida tariqasida, aprel oyining oxirgi o'n kunligida o'tkaziladi.

10. Turnirni o'tkazish joyi va vaqt, hududiy hamda mintaqaviy bosqichida yuridik texnikumlar direktorlari, respublika bosqichida respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Bunda, turnir o'tkazilishidan 15 kun oldin ishtirokchilarga joyi va vaqt to'g'risida xabar beriladi.

11. Respublika tashkiliy qo'mitasi a'zolari takliflariga binoan zaruratga ko'ra turnirni o'tkazish muddatlariga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

### **3-bob. Turnirda qatnashish tartibi**

12. Turnirning hududiy hamda mintaqaviy bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchilar va jamoalar to'g'risidagi ma'lumotlar hududiy va mintaqaviy bosqich yakuniga yetgach ikki ish kunida respublika tashkiliy qo'mitasiga taqdim etiladi.

13. Turnir jadvali barcha bosqichda, o'yinlar o'tkaziladigan kun arafasida ishtirok etadigan ishtirokchilar va jamoalar o'rtasida qur'a tashlash natijalariga ko'ra tuziladi va bosh hakam tomonidan tasdiqlanadi.

14. Turnirni o'tkazish belgilangan kunda turnirga yetib kelmagan ishtirokchilar va jamoaga texnik mag'lubiyat yoziladi.

15. Hakamlar guruhi tomonidan jamoa tarkibiga, jamoa a'zosi bo'lмаган о'чинчинг сабабсиз киритганлиги аниqlangan hollarda, ushbu jamoa turnirdan chetlashtirilishi mumkin.

16. Turnir davomida hakamlar o'tkazilayotgan sport turlari bo'yicha ishtirokchi va jamoalarni umumiy qoidalar asosida baholab boradi.

### **4-bob. Turnirning ishtirokchi va g'oliblarini taqdirlash va rag'batlantirish**

17. Turnirning hududiy, mintaqaviy va respublika bosqichlari yakunlari bo'yicha g'oliblarni (1, 2, 3-o'rin egallaganlarni) taqdirlash tadbiri yakuniy o'yin bo'lib o'tgan kuni tantanali vaziyatda o'tkaziladi.

Bunda, turnir g‘oliblari tegishli darajali diplomlar va medallar bilan taqdirlanadi.

Shuningdek, turnirning tegishli bosqichlari yakunida g‘oliblar qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlanishi mumkin.

18. Turnirning respublika bosqichida 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan jamoa va ishtirokchilar “Rektor kubogi”, diplom va medallar bilan taqdirlanadi.

19. Turnirning respublika bosqichida respublika tashkiliy qo‘mitasi qarori bilan taqdirlanadigan maxsus nominatsiyalar joriy etilishi mumkin.

Bunda, maxsus nominatsiyalar bosh hakam va hakamlar guruhi tomonidan aniqlanadi.

20. Turnir g‘oliblari homiy tashkilotlar tomonidan qo‘shimcha ravishda rag‘batlantirilishi mumkin.

21. Turnirni o‘tkazish va g‘oliblarni taqdirlash bilan bog‘liq barcha xarajatlar:

hududiy hamda mintaqaviy bosqichda – tegishli yuridik texnikumlarning budgetdan tashqari mablag‘lari;

respublika bosqichida – TDYU ba yuridik texnikumlarning budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

## **5-bob. Yakuniy qoidalar**

22. Mazkur nizomda ko‘rsatilmagan vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda hal qiluvchi qaror respublika tashkiliy qo‘mitasi tomonidan qabul qilinadi.

23. Turnir o‘tkaziladigan joyga ishtirokchi, jamoalarni olib kelish va olib ketish, ularning yashash va yo‘llarda harakatlanish xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha barcha tashkiliy chora-tadbirlar mas’uliyati yuridik texnikumlar direktorlari zimmasiga yuklatiladi.

24. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.